

# SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1-noyabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.

## Korxona va tashkilotlar soni


(2022-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

<b>Ro'yxatdan o'tgan korxonalar</b>	<b>56 746</b>	<b>114,8 %</b>
<b>Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar</b>	<b>52 882</b>	<b>113,3 %</b>
<b>Yangi tashkil etilgan korxonalar (yanvar-oktabr)</b>	<b>9 486</b>	<b>101,0 %</b>

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni


(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha  
2022- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




# Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(2022- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6,0 foizga oshdi**




■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar




# Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(2022- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




*Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,0** foizga oshdi*




## Kichik tadbirkorlik subyektlari




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



*O'tgan yilga nisbatan **10,8** foizga oshdi*




## Xususiy korxonalar




# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)


8



## Kichik tadbirkorlik subyektlari




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar




## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni

(1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022-yilning 1-noyabr holatiga ko'ra 11 181 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 644 taga yoki 17,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 10 266 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 319 taga yoki 14,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022-yilning yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 2 075 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,8 % ga kamayganini ko'rish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning tumanlar kesimidagi soni

(2022-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1-noyabr holatiga ko'ra 704 tani tashkil etib, ulardan 689 tasi yoki 97,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 48 taga yoki 7,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida 63 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



**Samarqand viloyatida MDH davlatlarining kapitali  
ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**

(2022-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

12

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>Qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
<i>Samarqand viloyati</i>	<b>689</b>	<b>444</b>	<b>245</b>
<i>Afg'oniston</i>	<b>53</b>	<b>22</b>	<b>31</b>
<i>Xitoy Xalq Respublikasi</i>	<b>100</b>	<b>72</b>	<b>28</b>
<i>Eron Islom Respublikasi</i>	<b>36</b>	<b>22</b>	<b>14</b>
<i>Qozog'iston Respublikasi</i>	<b>20</b>	<b>14</b>	<b>6</b>
<i>Janubiy Koreya Respublikasi</i>	<b>47</b>	<b>34</b>	<b>13</b>
<i>Rossiya Federatsiyasi</i>	<b>106</b>	<b>66</b>	<b>40</b>
<i>Tojikiston Respublikasi</i>	<b>17</b>	<b>11</b>	<b>6</b>
<i>Turkiya Respublikasi</i>	<b>120</b>	<b>68</b>	<b>52</b>
<i>Amerika Qo'shma Shtatlari</i>	<b>22</b>	<b>16</b>	<b>6</b>
<i>Boshqalar</i>	<b>168</b>	<b>119</b>	<b>49</b>

Viloyatda 2022-yil 1-noyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 689 tani tashkil etadi, shundan 444 tasi qo'shma korxonalar, 245 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi. Davlatlar kesimida ko'rib chiqqanda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Turkiya Respublikasi 120 ta, shundan 68 tasi qo'shma korxonalar, 52 tasi esa xorijiy korxonalar, Xitoy Xalq Respublikasi 100 ta, shundan 72 tasi qo'shma korxonalar, 28 tasi esa xorijiy korxonalar, Rossiya Federatsiyasi 106 ta, shundan 66 tasi qo'shma korxonalar, 40 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


13

(2022-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Turkiya Respublikasi 17,4 %, Xitoy Xalq Respublikasi 14,5 %, Rossiya Federatsiyasi 14,8 %, Afg'oniston 7,7 %, Janubiy Koreya Respublikasi 6,7 % va Amerika Qo'shma Shtatlari 3,2 % ga to'g'ri kelmoqda.

**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2022- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Samarqand viloyati	<b>689</b>	<b>444</b>	<b>245</b>
Samarqand sh	<b>314</b>	<b>180</b>	<b>134</b>
Kattaqo'rg'on sh	<b>24</b>	<b>20</b>	<b>4</b>
tumanlar:			
Oqdaryo	<b>33</b>	<b>23</b>	<b>10</b>
Bulung'ur	<b>24</b>	<b>12</b>	<b>12</b>
Jomboy	<b>48</b>	<b>35</b>	<b>13</b>
Ishtixon	<b>18</b>	<b>12</b>	<b>6</b>
Kattaqo'rg'on	<b>16</b>	<b>10</b>	<b>6</b>
Qo'shrabot	<b>22</b>	<b>10</b>	<b>12</b>
Narpay	<b>5</b>	<b>3</b>	<b>2</b>
Payariq	<b>18</b>	<b>10</b>	<b>8</b>
Pastdarg'om	<b>35</b>	<b>25</b>	<b>10</b>
Paxtachi	<b>10</b>	<b>6</b>	<b>4</b>
Samarqand	<b>39</b>	<b>30</b>	<b>9</b>
Nurobod	<b>13</b>	<b>12</b>	<b>1</b>
Urgut	<b>56</b>	<b>46</b>	<b>10</b>
Toyloq	<b>14</b>	<b>10</b>	<b>4</b>

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022- yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

15




2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 56 746 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi, Samarqand shahrida (28,3%), Urgut (8,4%), Pastdarg'om (8,6%), Samarqand (7,3%), Ishtixon (5,3%), Payariq (5,3%), Kattaqo'rg'on (5,2%), Oqdaryo (4,5%), Toyloq (4,4%), Bulung'ur (4,2%), Jomboy (4,0%), Kattaqo'rg'on shahri (3,2%), Narpay (3,2%), Nurobod (3,1%), Paxtachi (2,7%) va Qo'shrabot (2,3%) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda)


2022- yil yanvar-oktabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 9 486 ta soniga nisbatan hududlarlagi ulushi, Samarqand shahrida (24,6%), Pastdarg'om (8,7%), Urgut (8,5%), Samarqand (7,7%), Ishtixon (5,9%), Oqdaryo (5,3%), Kattaqo'rg'on (5,5%), Payariq (4,6%), Toyloq (4,7%), Bulung'ur (5,0%), Jomboy (4,3 %), Nurobod (3,9%), Narpay (3,1%), Paxtachi (2,9%), Kattaqo'rg'on shahri (3,0%) va Qo'shrabot (2,3%) tumanlari ulushiga tegishli.



# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar

(2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, birlikda)


16



2022- yilning yanvar-oktabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda jami 2 075 korxonalarning viloyatga nisbatan ulushi, Samarqand shahrida (16,1 %), Kattaqo'rg'on (12,2%), Pastdarg'om (10,6%), Payariq (10,7%), Samarqand (7,9%), Bulung'ur (7,3%), Urgut (5,5%), Jomboy (4,9%), Oqdaryo (4,4%), Ishtixon (4,5%), Toyloq (4,4 %), Narpay (3,9 %), Paxtachi (3,6 %), Qo'shrabot (1,9%), Kattaqo'rg'on shahar (1,7 %), va Nurobod (0,4 %) tumanlari ulushga ega.

## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2022– yilning yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnomasi** tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestridera mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 - yil 24 - avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the official website of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main navigation bar includes links for 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MEROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The central content area displays a search interface for statistical classification codes (Statistik klassifikatsiyalar), with a sub-menu showing options like 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Usulbuy materiallar', and 'Statistik klassifikatsiyalar'. A sidebar on the right lists 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' such as 'Aholini ro'yxatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-relejzlar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar – statistika haqida', and 'Usulbuy materiallar'. The footer contains links for 'Bayroq', 'Gerb', 'Madhiya', 'Shaxsiy kabinet', and social media icons.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Samarqand viloyati statistika boshqarmasi**

**Statistik registrlarni yuritish**

**bo'limi**

**Tel.: 66 235-14-42**